

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

“FUNDAMENTAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 65 9 (2)301

LATIPOVA LOLA ILXOMOVNA

**IQTISODIY INQIROZLAR NAZARIYASI, UNING PAYDO
BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI**

**70310101– Iqtisodiy nazariya
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar:
I.f.d. A.Yu. Xudoyqulov

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan. 5 sonli bayonnoma «26» avgust 2023 y.

Ilmiy rahbar: Xudaykulov A.

Magistrant: Latipova L.

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “23” 05
№ 7/05 raqami bilan ro‘yxatga olingan

“Ximoyaga tavsiya etiladi”

“Fundamental iqtisodiyot” kafedراسi mudiri,

dots. B. Mamaraximov [imzo]

“23” may 2023-yil

Himoya 2023-yil “24” may soat 10:00 da
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tdi

ANNOTASIYA

Har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy inqirozlarning vujudga kelish sabablari, unga qarshi kurash va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan nazariyalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy inqirozlar nazariyasi, uning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq ilmiy nazariy g'oyalar, O'zbekistonda iqtisodiy inqirozlarni oldini olishga va barqaror iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish tadqiqotning maqsadi bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi va hal etildi: Iqtisodiy inqirozlar nazariyasining paydo bo'lishi va rivojlanishida turli iqtisodiy oqim va maktablarning roli o'rganilgan; iqtisodiy inqirozlarning mazmuni, vujudga kelish sabablari va turlari tadqiq qilingan; jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari tahlil qilingan; jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar tadqiq qilingan; koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan jahonda amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan; O'zbekistonda pandemiyadan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi holati tahlil etilib, uning istiqbollari yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *iqtisodiy inqiroz, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, buyuk depressiya, koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan iqtisodiy inqiroz, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qo'llab-quvvatlash, soliq, kredit, YaIM, korrelyatsiya koeffisienti, Fisher mezoni; ekonometrik model, prognoz*

Summary

In the socio-economic development of any country, it is important to study the theories aimed at the causes of economic crises, the fight against them and the elimination of their consequences. The purpose of the research is to develop scientific proposals and practical recommendations aimed at preventing economic crises and sustainable economic growth in Uzbekistan.

In order to achieve the goal of the study, the following tasks were determined and solved: the role of various economic currents and schools in the emergence and development of the theory of economic crises was studied; the content, causes and types of economic crises are studied; the essence, causes and negative consequences of the world financial and economic crisis are analyzed; the impact of the world financial crisis on the economy of Uzbekistan and the factors that are the basis for preventing and mitigating its consequences are studied; the work done in the world aimed at mitigating the negative consequences of the economic crisis caused by the coronavirus pandemic was analyzed; The current state of socio-economic development in Uzbekistan after the pandemic was analyzed, and scientific proposals and recommendations were developed regarding its prospects.

Key words: *economic crisis, world financial and economic crisis, great depression, economic crisis caused by the coronavirus pandemic, small business and private entrepreneurship, support, tax, credit, GDP, correlation coefficient, Fisher criterion; econometric model, forecast*

MUNDARIJA

Annotasiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	8
Keltirilgan qisqartmalar	9
I BOB. KIRISH	10
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	13
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	15
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati...	16
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	16
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	18
2.1. Kirish.....	18
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	18
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	29
2.4. Xulosa.....	30
III BOB.	31
METODOLOGIYA.....	
3.1. Tadqiqot dizayni.....	31
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	31
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	32
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	32

3.5	Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning echimi	33
3.6	Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	33
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR		34
4.1.	Iqtisodiy inqirozlarning mazmuni, vujudga kelish sabablari va turlari.....	34
4.2.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining mohiyati, kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari.....	38
4.3.	Jahon moliyaviy inqirozining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo‘lgan omillar.....	53
4.4.	Koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishga qaratilgan jahonda amalga oshirilgan ishlar.....	57
4.5.	O‘zbekistonda pandemiyadan so‘ng ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi holati tahlili va istiqbollari.....	63
V BOB. XULOSA		74
5.1.	Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	74
5.2.	Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	75
5.3.	Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar ...	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI		78

I BOB. KIRISH

Har qanday mamlakat iqtisodiy o'sish, iqtisodiy resurslarning to'la bandligi va narxlarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladi. Ammo uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzluksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari ta'sirida tebranib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqti-vaqti bilan ob'ektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida ayrim vaqtlarda, ayrim bo'g'inlarda uzilishlar paydo bo'ladi va bu uzilish iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo'lishi hisoblanadi. Iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmining keskin tushib ketishiga aytiladi.

Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab qoladi, tovarlar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning o'sishi inflyasiya, ya'ni narx darajasining asossiz ravishda keskin ko'tarilishi sababli orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo'ladiki, bunda iqtisodiy o'sish bandlik va ishlab chiqarishning past darajasiga o'rin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko'tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o'sadi. Qisqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflyasiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi – takror ishlab chiqarishdagi beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish va uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bo'lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nusxalarida turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Tarixda dunyo yirik iqtisodiy inqirozlarni boshidan o'tkazdi. 2008 yilda AQShda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz butun dunyo iqtisodiyotiga ta'sir etgan bo'lsa, keyinchalik 2020 yilda koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan iqtisodiy inqiroz ham butun dunyoni qamrab oldi. Bu borada mamlakatimiz